



CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDA
OILAVIY QADRIYATLAR VA AYOL TAQDIRINING BADIY TALQINI

Qurbonova Malika Toxir qizi

E-mail: Nurishkooo22@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida oilaviy qadriyatlar va ayol taqdirining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asardagi oila, nikoh, ota-ona va farzand munosabatlari Zebi obrazi misolida yoritiladi. Patriarxal muhit, milliy urf-odatlar va ijtimoiy tengsizlikning ayol erkinligi hamda ruhiy kechinmalariga ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining ayol taqdirini tasvirlashdagi badiiy-psixologik mahorati baholanadi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, "Kecha va kunduz", oilaviy qadriyatlar, ayol taqdiri, Zebi obrazi, nikoh, patriarxal muhit, badiiy psixologizm.

Аннотация: В статье анализируется художественная интерпретация семейных ценностей и женской судьбы в романе Чулпана «Ночь и день». На примере образа Зеби рассматриваются семья, брак и взаимоотношения родителей и детей. Раскрывается влияние патриархальной среды, национальных обычаев и социального неравенства на свободу женщины и её внутренний мир. Особое внимание уделяется художественно-психологическому мастерству писателя в изображении женской судьбы.

Ключевые слова: Чулпан, «Ночь и день», семейные ценности, женская судьба, образ Зеби, брак, патриархальная среда, художественный психологизм.

Abstract: This article analyzes the artistic interpretation of family values and women's fate in Cholpon's novel *Night and Day*. Family, marriage, and parent-child relationships are examined through the character of Zebi. The study reveals the influence of the patriarchal environment, national customs, and social inequality on women's freedom and inner experiences. Particular attention is also paid to the writer's artistic and psychological skill in portraying women's fate.

Keywords: Cholpon, *Night and Day*, family values, women's fate, Zebi, marriage, patriarchal environment, literary psychologism.

Kirish. Oila jamiyatning muhim ijtimoiy-ma'naviy tayanchi bo'lib, unda xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, axloqiy mezonlari va milliy qadriyatlari mujassamlashadi. Badiiy adabiyotda oilaviy munosabatlarning tasvirlanishi muayyan davrdagi ijtimoiy muhit, inson dunyoqarashi va shaxs erkinligi bilan bog'liq muammolarni anglash imkonini beradi. Ayniqsa, ayolning oiladagi mavqeyi va taqdiri orqali jamiyatning ma'naviy-axloqiy qiyofasi namoyon bo'ladi. O'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan xaqiqiy vatanga e'tiqodli insonlarning siymosini ko'ramiz. Masalan, Tumaris va Shiroq, Rustam dostoni, Alpomish, Muqanna, Spitamen, Jaloliddin





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Manguberdi, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, ikkinchi jahon urushi yillarida halok bo'lgan qanchadan qancha yurtdoshlarimiz, mustaqilligimiz tinchligiga qilingan tajovvuzkorona harakatlarning qurboni bo'lgan ko'plab e'tiqodli yigitlarimizning nomlarini keltirish mumkin. Bugungi kunda mustaqillik sharofati tufayli, ularning muborak nomlarini g'urur va iftixor ila tilga olmoqdamiz, o'zbek halqi ozodligi yo'lida chekkan zahmatlarini istiqbol sharofati tufayli yuksak qadrlamoqdamiz. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani XX asr boshlaridagi Turkiston hayotini keng ko'lamda aks ettirgan muhim asarlardan biridir. Romanda mustamlakachilik muhiti, ijtimoiy tengsizlik va ma'naviy qoloqlik bilan birga, patriarxal oiladagi munosabatlar ham badiiy tasvirlangan. Yozuvchi oila va nikoh masalalarini shaxsiy hayot doirasidagina emas, balki davrning murakkab ijtimoiy muammolari bilan uzviy bog'liq holda yoritadi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tarjimashunosligida badiiy tarjima muammolari, uning ko'pqirrali tabiati, madaniy kompetensiyaning ahamiyati, shuningdek, tarjimon uslubi va strategiyalari masalalari A. Nida, J. Catford, S. Bassnett, P. Newmark, A. Lefevere, I. Graham kabi olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. Shu bilan birga, Sh. Lyons Cho'lpon asarini chuqur tahlil qilib, qahramonlar hayotini mustaqil baholaydi hamda ularni mustamlakachilik davri kontekstida qiyoslash orqali muallif tafakkurining keng qamrovliligini namoyon etadi. Rus tarjimashunoslik maktabida ham badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid muhim ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, V. Maslova, V. Komissarov, V. Vinogradov, V. Kukharenko, M. Bakhtin, L. Barkhudarov kabi olimlar ushbu sohaning nazariy asoslarini boyitishga salmoqli hissa qo'shganlar. O'zbek tarjimashunosligida esa badiiy tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik omillari, xususan, frazeologik birliklar, milliy-madaniy tushunchalar va badiiy obrazlarning tarjimada qayta yaratilishi kabi mavzularda G'. Salomov, B. Yo'ldoshev, G. Xalliyeva, N. To'xtaxo'jayeva, Q. Musayev, I. Tuxtasinov, R. Shirinova, U. Yo'ldoshev kabi olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada psixoanalitik, tavsifiy-tahliliy, badiiy-tahliliy, kontekstual tahlil, germeneytik tahlil, psixologik tahlil va matn tahlili metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Jahon tilshunosligida xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarning kengayishi milliy ruh va estetik ta'sir kuchini ham qayta yaratishni talab etadi, bu esa uni tilshunoslik va adabiyotshunoslik chorrahasidagi eng murakkab tadqiqot obyektlaridan biriga aylantirdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari inglizcha tarjimalarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi, zero bu orqali biz nafaqat bitta asarning boshqa til va madaniyat muhitidagi taqdirini, balki umuman milliy adabiyotimiz namunalarning jahon adabiy makonida qanday o'zgarishlarni boshdan kechirishi, qanday yangi mazmun kasb etishi va qay tarzda qabul qilinishi kabi dolzarb masalalarni ham teran ilmiy tadqiq etish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Aynan shunday murakkabliklar orqali milliy adabiyotlar yaratgan badiiy meros xalqaro maydonga olib chiqiladi, madaniyatlararo muloqot yangi





bosqichga ko'tariladi hamda tilning har bir jamiyatga xos madaniy-mental kod sifatidagi roli teran yoritiladi.

“Kecha va kunduz” asari rus, ingliz hamda fransuz tillariga tarjima qilingan. Jumladan, roman Abdulhamid Ismoilov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan bo'lib, 1989-yilda “Sharq yulduzi” nashriyotida “Ночь и День” nomi bilan nashr etilgan.

Roman fransuz tiliga Stefan Dyudanyon tomonidan “Nuit” nomi bilan tarjima qilingan. Tarjima nihoyatda nafis, unda adib qo'llagan leksik birliklar, qahramonlar his-tuyg'ulari, tabiat manzaralari, xususan, o'zbek xalqining milliy mentalitetini ifodalagan jumalarga fransuzcha muqobillar va izohlar muvaffaqiyatli topilgan. Tarjimon asar haqida shunday fikr bildirgan: “Bugungi kunda Markaziy Osiyoning zamonaviy adabiyotining durdona asari sifatida e'tirof etilayotgan “Nuit” (“Kecha va kunduz”) asari sharq tilidan g'arb tiliga o'girilgan birinchi tarjima asar bo'lib, 20-asrning ilk zarbasiga duch kelgan Markaziy Osiyo jamiyatlarining ichki qiyofasini aks ettiruvchi roman bo'lib xizmat qiladi”¹¹

Amerikalik tarjimon Kristofor Fort 2015-yilda “Kecha va kunduz” romanini ingliz tiliga tarjima qilishga kirishgan va u bu jarayonda O'zbekistonga bir necha marta sayohat qilgan, ma'lum muddat O'zbekistonda yashagan.¹² Romanning ingliz tiliga tarjima qilingan yana boshqa nusxasi I.M.To'xtasinov, U.R.Yo'ldoshev, A.A.Hamidovlar¹³ muallifligida 2023-yil nashr etilgan.

Romanda o'zbek jamiyatidagi oilaviy munosabatlar, ayollarning turmushdagi o'rni va ularga xos fazilatlar badiiy-estetik jihatdan mahorat bilan tasvirlangan. Muallif Zebi obrazida ayollarga xos itoatkorlik, ibo-hayo va andishani ochib beradi. Akbarali mingboshi bilan bo'lgan dialogda Zebining so'zsiz buyruqlarga bo'ysunishi, erining ovoqidagi qo'rslik va qattiqlikka qaramay e'tiroz bildirmasdan xizmatni davom ettirishi milliy qadriyatlarning badiiy ko'rinishi sifatida yoritiladi:

“ - Tur, hay! – dedi Zebiga.

Zebi yotgan joyidan turib, fonarni balandlatdi.

- Dasturxonni yoz! Yegulik narsang bormi?

- Ha kosada osh bor.

- Ber buyoqqa.

Zebi erining mast ekanligini bilsa-da, uning ovoqidagi bu g'ayritabiiy qo'rslik va qattiqlikka hayron bo'ldi, boshini ko'tarib, unga tikildi, “o'zimi, boshqami?” deganday...

- Nimaga menga qaraysan? Yo mastmisan, sintaloq? – dedi mingboshi. Zebi indamasdan dasturxonni yoyib, oshni qo'ydi.”¹⁴

Zebi erining yuziga hayrat bilan qaragani uchun koyish eshitadi, chunki o'sha davr madaniy muhitida erkakka tik boqish hurmatsizlik hisoblangan. Ammo Zebining bu nigohi

¹¹ Stephane Dudoignon. Nuit. – France: Auvregne, 2009. – P.458.

¹² Ford Christopher. Night and Day. – Boston: Academic Studies Press, 2019. – 278 p.

¹³ Tukhtasinov I.M., Yoldoshev U.R., Khamidov A.A. Night and day. Novel/Chulpan. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2023. –218 p.

¹⁴ Cho'ipon. Kecha va kunduz. – Toshkent.: Akademnashr, 2016. B – 294-295





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

beodoblik emas, balki hayrat ifodasi bo'lsa-da, u buni izohlashga urinmaydi, aksincha, indamasdan xizmatini davom ettiradi. Bu holat Zebi timsolida o'zbek ayollarining sabrli, iboli va itoatkor obrazini namoyon etadi. Asarda Qurbonbibi obrazi ham katta ahamiyat kasb etadi. U qizi Zebining ko'nglini yozish uchun yolg'on yo'lini topishga urinadi, biroq bu hatti-harakat o'zining emas, balki farzandi manfaatidan kelib chiqadi. Qurbonbibining "Katta odam, uyat bo'ladi..." kabi iborolari sharqona odob-axloq, hurmat-ehtirom bilan uyg'un qat'iyatni bildiradi.


Xulosa. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida oilaviy qadriyatlar va ayol taqdiri davrning ijtimoiy-ma'naviy muammolari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Asarda oila jamiyatdagi mavjud tartiblar, patriarxal qarashlar va milliy urf-odatlar namoyon bo'ladigan muhim badiiy makon vazifasini bajaradi. Ota-onaga hurmat, oila sha'ni va an'analarga sadoqat kabi qadriyatlar ulug'lansa-da, ularning mutaassibona talqini shaxs erkinligini cheklashi ko'rsatiladi.

Zebi obrazi orqali ayolning oiladagi huquqsizligi, uning xohish-istaklari bilan patriarxal muhit talablari o'rtasidagi ziddiyat ochib beriladi. Qahramon taqdiridagi fojia faqat bir oilaning muammosi emas, balki ayolning insoniy huquqlari va erkin tanlovini tan olmagan ijtimoiy muhitning oqibatidir. Majburiy nikoh, ota-ona irodasining mutlaq ustunligi va ayolga nisbatan tengsiz munosabat Zebi hayotini fojiaga olib keladi.

Yozuvchi qahramonning ruhiy kechinmalarini, qo'rquv va umidlarini badiiy-psixologik tasvirlar orqali ta'sirchan ifodalaydi. Shu orqali oilaviy qadriyatlarning haqiqiy mohiyati mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, ishonch va erkin tanlovga asoslanishi zarurligi anglashiladi. Demak, "Kecha va kunduz" romani oilani muqaddas qadriyat sifatida e'tirof etish bilan birga, uning inson erkinligi va ayol manfaatlariga zid bo'lgan eskirgan asoslarini tanqidiy baholaydi. Asarning bu g'oyaviy-badiiy xususiyati bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon. *Kecha va kunduz*. – Toshkent.: Akademnashr, 2016.
2. Cho'lpon. *Yana oldim sozimni*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
3. Sharafiddinov O. *Cho'lponni anglash*. – Toshkent: Yozuvchi, 1994. – 420 b.
4. Yo'ldoshev M. *Cho'lpon so'zining sirlari*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
5. Quronov D. *Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
6. Mamajonov S. Cho'lponning nasriy va dramatik ijodi. *Cho'lponning badiiy olami*. – Toshkent: Fan, 1994.
7. Ahmedova M., Oxunova M. "Kecha va kunduz" romani qahramonlarini ta'riflashda ijodkor mahorati va qo'llangan antroponimik birliklarning ahamiyati. *Academic Research in Educational Sciences*. – 2022. – Vol. 3. – № 5. – B. 412–416.
8. Karim B. *Cho'lpon va tanqid*. – Toshkent: Fan, 2004.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

9. Normatov U. *Ijod sehri*. – Toshkent: Sharq, 2007.
10. Karimov N. *XX asr adabiyoti manzaralari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
11. Lyons S.T. Resisting Colonialism in the Uzbek Historical Novel “Kecha va Kunduz” (“Night and Day”), 1936. *Inner Asia*. – 2001. – Vol. 3. – № 2. – P. 175–192.
12. Sharafiddinov O. Cho‘lponni anglash. *Ijodni anglash baxti*. – Toshkent: Sharq, 2004.

